



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM -TARBIYA OLISHLARI



Turg'unova Dilnoza G'ofurjon qizi

Namangan davlat chet tillari institute

Jahon tillari fakulteti Ingliz

tili va adabiyoti o'qituvchisi,

dilnozaturgunova0797@gmail.com

Orifjonova Mavjudaxon Bahodirjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti Jahon

tillari fakulteti Filologiya va tillarni òqitish

(ingliz tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

orifjonovamavjuda029@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lism-tarbiya jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda ushbu bolalar uchun ta'lism berishning zamonaviy yondashuvlari, pedagogik metodlar va inkluziv ta'limga ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turli cheklardarga ega bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan metodologiyalar va amaliy tadqiqotlar natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Imkoniyati cheklangan bolalar, inkluziv ta'lism, pedagogika, maxsus ta'lism metodlari, ta'lism-tarbiya, rehabilitatsiya.

EDUCATION AND UPBRINGING OF DISABLED CHILDREN

Turgunova Dilnoza Gogurjon qizi, Namangan State Institute of Foreign Languages, Faculty of World Languages, teacher of English Language and Literature Department, dilnozaturgunova0797@gmail.com

Orifjonova Mayjuda Bahodirovna, Namangan State Institute of Foreign Languages, Faculty of World Languages, Philology and Language Teaching, Junior student.



ABSTRACT

This article explores the education and upbringing processes of children with disabilities. It analyzes modern approaches to inclusive education, pedagogical methods, and the significance of creating an adaptive learning environment for such children. The article also presents a methodological framework and a review of existing studies on educating children with physical, sensory, or cognitive limitations.

Keywords: children with disabilities, inclusive education, pedagogy, special education methods, education and rehabilitation.

KIRISH

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonlari jamiyatda har tomonlama muhim masala hisoblanadi. Bunday bolalar jamiyatning faol a’zolariga aylanishlari uchun ularga ta’lim va tarbiyani tashkil qilish muhimdir. Ushbu maqolada maxsus ta’lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, muammolar va ularni hal qilish usullari muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlilida xorijiy va mahalliy tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan. Jumladan:

1. Vygotskiy L.S. (1983) – maxsus ta’limga moslangan pedagogik yondashuvlar.
2. UNESCO (2019) – inklyuziv t’limni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro dasturlar.
3. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti (2020) – imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim jarayonidagi yondashuvlari bo‘yicha tadqiqotlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maxsus ta’lim uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda inobatga olinishi kerak bo‘lgan faktorlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Ta’limga kirish imkoniyatlari

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim olishda asosiy muammo – ta’limning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerakligi. Bu bolalar uchun maxsus o‘quv rejalarini, metodikalar va individual yondashuvlar zarur. Shuningdek, jamiyatda imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun infratuzilma, yordamchi texnologiyalar,

muallimlarning maxsus tayyorgarligi va ularning individual ehtiyojlariga javob beradigan darsliklar yaratish muhimdir.

2. Maxsus ta'lim dasturlari

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi maxsus dasturlarni taklif qilishi kerak. Bu dasturlar o'quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Misol uchun, ko'rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus darsliklar, assistiv texnologiyalar va ko'rgazmali materiallar ishlatalishi; bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga yordam berish uchun psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va boshqa mutaxassislar ham ta'lim jarayoniga jalb qilinishi.

3. Jamiyatning roli

Jamiyatning o'zgarishi va imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishidagi o'rni katta. Ularni faqat ta'lim muassasasida emas, balki mакtabdan tashqaridagi muhitda ham qo'llab-quvvatlash zarur. Masalan, oilalar, maktab jamoalari va davlat tomonidan yaratilgan maxsus sharoitlar bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi. Bu bolalar uchun ishbilarmon muhit, ijtimoiy va madaniy faoliy, ta'lim olish va kelajakdagi muvaffaqiyatlar yo'lida katta imkoniyatlar ochadi.

4. Inkluziv talim uchun sharoit yaratish.

Talim olish maskalanlaridagi o'quv binolarini imkoniyati cheklangan bolalarning extiyojlariga mos ravishda qurish va jixozlash masalalarini ko'rib chiqish hamda ularni shu ravishda qurishni boshlash, jamiyat uchun bunday o'r ganuvchilar muhim o'ringa egalagini ko'rsatadi.

Xulosha

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi, ularning jamiyatga moslashishini va o'zlarini to'laqonli va baxtli inson sifatida his qilishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish, nafaqat ta'lim jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Har bir bolaning o'z imkoniyatlariga qarab rivojlanishi uchun zarur resurslar va sharoitlar yaratilgan taqdirda, ularning kelajagi yoritilgan bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida individual yondashuvlar va qo'llab-quvvatlash muhim o'rinni tutadi. Ta'lim jarayonida maxsus texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish bolalar uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, ota-onalar va jamiyatning bu jarayonga jalb qilinishi ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

Maqolada berilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalar qilindi: Inkluziv ta'lim tizimini rivojlantirish zarur. Maxsus ta'limda individual yondashuv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. Pedagog va ota-onalar uchun trening va malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish ta'lim jarayonining sifatini oshiradi. Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyas;
2. BMTning "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi;
3. "Inkluziv ta'lim asoslari" - T.M. Ashurova, T.: 2020;
4. "Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish masalalari" - xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, T.: 2022;
5. World Health Organization (WHO) - Disability and Education Reports, 2020;
6. UNESCO - "Inclusive Education: Key Principles and Best Practices", 2021;
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining normativ hujjatlari, 2023;
8. Vygotsky L.S. "Defectology and Education of Children with Disabilities", Moskva, 1987.